

O‘ZBEK TILIDAGI FONETIK HODISALAR IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANI TAHLILI MISOLIDA

Raxmonqulova Sarvinoz Shavkat qizi
Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi
sraxmonqulova724@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11002778>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi fonetik hodisalar haqida so‘z yuritiladi va Iqbol Mirzoning “Bonu” romani misolida nutqda yuz beradigan turli fonetik o‘zgarishlar va ularning hosil bo‘lish sabablari ko‘rsatiladi. Har bir fonetik o‘zgarish ba‘zi misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Fonetik hodisalar, kombinator va pozitsion o‘zgarishlar, akkomodatsiya, dissimilyatsiya, metateza, epenteza, proteza, reduksiya.

PHONETIC PHENOMENA IN THE UZBEK LANGUAGE AS AN EXAMPLE OF THE ANALYSIS OF THE NOVEL "BONU" BY IQBAL MIRZA

Abstract. This article talks about phonetic phenomena in the Uzbek language and shows various phonetic changes that occur in speech and the reasons for their formation on the example of Iqbal Mirza's novel “Bonu”. Each phonetic change is analyzed on the basis of some examples.

Keywords: Phonetic phenomena, combinatorial and positional changes, accommodation, dissimilation, metathesis, epenthesis, prosthesis, reduction.

ФОНЕТИЧЕСКИЕ ЯВЛЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ НА ПРИМЕРЕ АНАЛИЗА РОМАНА ИКБАЛА МИРЗЫ «БОНУ»

Аннотация. В данной статье говорится о фонетических явлениях в узбекском языке и показаны различные фонетические изменения, происходящие в речи, и причины их формирования на примере романа Икбала Мирзы “Бону”. Каждое фонетическое изменение анализируется на основе некоторых примеров.

Ключевые слова: Фонетические явления, комбинативные и позиционные изменения, аккомодация, диссимилиция, метатеза, эпентеза, протеза, редукция.

Kirish: “Fonetika” grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “tovush” ma’nosini anglatadi, ya’ni “tovush haqidagi bo‘lim” demakdir. Nutq tovushlari fonetikada o‘rganiladi [5,67].

Fonologiya yo‘nalishining asoschisi N.S.Trubetskoy nutq tovushlarini o‘rganuvchi fan fonetika, til tovushini o‘rganuvchi fan esa fonologiya hisoblashini ta’kidlaydi.

U fonetika bilan fonologiya o‘rtasidagi farqqa to‘xtalar ekan, fonetika o‘rganilayotgan tovush yoki tovush kompleksining ma’noga munosabatini nazardan soqit qiladi, deydi. Shuning uchun fonetikani inson nutqining moddiy (tovush) tomoni haqidagi fan sifatida izohlaydi [3,68].

Boduen de Kurtenening tilshunoslik oldidagi yana bir xizmati shuki, u tilshunoslikka fonema nazariyasini olib kirdi. Boduen birinchilardan bo‘lib, tovushdan farq qiladigan fonetik birlikni ajratish zarurligini angladi.

Uning ilmiy faoliyati davomida fonema haqidagi qarashlari o‘zgarib bordi. Shuning uchun Boduen asarlarida fonemaning xilma-xil talqini ko‘zga tashlanadi [3,23].

L.V.Shcherba keyinchalik fonemaning funksional tomoniga, ya’ni ma’no farqlash xususiyatiga asosiy e’tiborini qaratdi va psixologik talqindan xalos bo‘ldi. Jumladan, “Fransuz tili

fonetikasi” asarida fonemaga sof funksional tomondan soʻz va uning shakllarini farqlash uchun xizmat qiladigan tovushlar tipi sifatida yondashadi. U fonemani ajratish uchun tovushning artikulation-akustik xususiyati emas, balki maʼno farqlash xususiyati muhim belgi ekanligini taʼkidlaydi [3,130].

Muayyan nutq jarayonida tovushlar talaffuzida maʼlum bir fonetik hodisalar roʻy beradi. Fonetik oʻzgarishlar 2 guruhga boʻlinadi: **kombinator oʻzgarishlar** va **pozitsion oʻzgarishlar**.

Nutq jarayonida tovushlarning bir-biriga taʼsiri natijasida yuzaga keladigan oʻzgarishlar **kombinator oʻzgarishlar** deyiladi [2,35]. Fonetik oʻzgarishlarning bu turiga quyidagilarni kiritamiz:

1.**Akkomodatsiya** (lotincha *accomodatio* – moslashuv) keng tarqalgan fonetik hodisalardan biri boʻlib talaffuz iqtisodi bilan uzviy bogʻliqdir [1,36].U oʻz navbatida 3ta ichki guruhlarga boʻlinadi. Ular:

1.Keyingi tovushning ekskursiyasi oʻzidan oldin kelgan tovushning rekursiyasiga moslashsa, **progressiv akkomodatsiya** deyiladi [1,36]. Misol uchun,

1.Yana oʻsha toshlar ogʻrigʻini his qilishim, **gʻanim**ga ham ravo koʻrmaydigan kunlarni qaytadan yashab oʻtishimga toʻgʻri keldi [6,9].

2.Oʻylay-oʻylay dorilfununga **qaytishga qaror** qildim [6,94]. Bu gaplarda **gʻanim qaytish** va **qaror** soʻzlaridagi **q** va **gʻ** chuqur til orqa undoshi taʼsirida **a** til oldi unlisi talaffuzda til orqa unlisi singari talaffuz etiladi.

2.**Regressiv akkomodatsiya** – progressiv akkomodatsiyaning tamoman aksi. Aksincha, agar oldingi tovushning rekursiyasi keyingi tovushning ekskursiyasiga moslashsa, progressiv akkomodatsiya deb ataladi [1,36].

1.Aksiga olib, u kishi bizga **dars** bermas ekan [6,95].

2.Avvalgidek aʼlo boʻlmasa ham “oʻgʻil bola baho” bilan bilan oʻqishni tugatib, **diplomni** qoʻlga kiritdim [6,95]. Bu gaplardagi **dars**, **diplom** soʻzlarida **a**, **i** til oldi unlilaridan oldin kelgan **d** tovushi nutqda yumshoqroq talaffuz etiladi.

3.**Domlaning** qalin koʻzoynagi ortidan qorachilari “yilt-yilt” etdi-yu, bosh eggancha sukutga choʻmdi [6,97].

4.Bir-birlariga juda mos: ikkovi ham oʻqigan, madaniyatli, ilimli, **dunyoqarashi** keng, palagi pok insonlar [6,104]. Bu gaplarda esa **domla** va **dunyoqarash** soʻzlaridagi **o** va **u** til orqa unlilaridan oldin kelgan **d** tovushi nutqda qattiqroq talaffuz qilinadi. **Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, til oldi unililari (a, e, i)dan oldin kelgan undoshlar yumshoqroq, til orqa unililari (o, u, oʻ)dan oldin kelgan undoshlar qattiqroq talaffuz etiladi.**

3.Qoʻshni kelgan tovushlarning bir-biriga taʼsiri natijasida ularning artikulationiyasi moslashuvi **oʻzaro akkomodatsiya** deyiladi [1,36].

Hayotda bitta ham ishonadigan, suyanadigan, **maslahat** soʻraydigan, chalkash vaziyatdan olib chiqadigan, yoʻl koʻrsatadigan odam topolmasang, bundan **ortiq** fojia boʻlmasa kerak [6,135]. Ushbu gapda qatnashgan **maslahat** soʻzida **s** undoshi taʼsirida **l** undoshi jarangsizroq talaffuz etiladi, **l** undoshi taʼsirida esa **s** undoshi shovqinliroq talaffuz etiladi. **Ortiq** soʻzida esa **r** undoshi taʼsirida **t** shovqinliroq, **t** undoshi taʼsirida **r** jarangsizroq talaffuz etiladi. **Bundan koʻrinib turibdiki, akkomodatsiyaning bu turi, koʻpincha, sonor tovushlar va jarangsiz tovushlar yonma- yon kelganda hosil boʻladi.**

2. **Assimilyatsiya** lotincha “assimilatio” soʻzidan olingan boʻlib, “oʻxshashlik” degan maʼnoni anglatadi. Tovushlarning oʻzaro bir-biriga taʼsiri natijasida biri ikkinchisiga oʻxshab ketishi assimilyatsiya hodisasi deyiladi [2,37]. Assimilyatsiya ham akkomodatsiya singari bir necha ichki guruhlarga boʻlinadi.

1. Oldinda kelayotgan tovush keyingisiga taʼsir oʻtkazib, uni oʻziga oʻxshatib olsa, **progressiv assimilyatsiya** roʻy beradi [2,37].

1. Chidolmadim, choynakni choy-poyi bilan yuziga qaratib **otdim** [6;208].

2. Bu tush Olmos koʻp takrorlaydigan baytni menga eslatdi [6,175]. Ushbu gaplarda qatnashgan **otdim, bitdi** soʻzlari talaffuzda **otdim, bitti** tarzida aytiladi. Yaʼni **t** undoshi **d** undoshini oʻziga oʻxshatib oladi.

2. Keyingi kelayotgan tovush oʻzidan oldingisini oʻziga oʻxshatib olsa, **regressiv assimilyatsiya** deyiladi [2,37].

1. Usiz havo yetishmayotgandek, ovqat **tuzsiz** va taxirdek [6,232].

2. Ularga **soʻzsiz** ergashib, tavakkalga takya qilib boraverdim [6,216].

3. Adashmasam, men izlagan inson **Sizsiz** [6,7]. Ushbu gaplardagi **tuzsiz, soʻzsiz, sizsiz** soʻzlarida s jarangsiz undoshi taʼsiri tufayli **z** jarangli undoshi **s** tarzida, yaʼni **tussiz, soʻssiz, sissiz** tarzida talaffuz qilinadi.

3. **Dissimilyatsiya** termini lotincha “dissimilation” soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “oʻxshamaslik” maʼnosini anglatadi. Talaffuz jihatdan bir-biriga yaqin boʻlgan tovushlardan biri oʻzining fiziologik yoki akustik xususiyatlarini oʻzgartirib yuborsa, bunday hodisa dissimilyatsiya deyiladi [2,38].

1. Sizlarga foydam tegmayapti, **zararim** ham tegmasligi kerak, – dedim [6,98]. Ushbu gapdagi **zarar** soʻzi talaffuzda **zaral** tarzida aytiladi.

2. Akangga pul **zaril** ekan, bobongning hovlisini savdoga qoʻyibdi [6,60]. Yuqorida keltirilgan gapda **zaril** soʻzi **zarur** soʻzining oʻzgargan shaklidir.

4. **Diereza** soʻzdagi tovushlardan birini talaffuz qilmay tushirib qoldirishdir [2,38].

1. U sevgi yoʻq deb hisoblar, koʻngil – odamning eng **xavfli** dushmani, derdi [6,27].

2. Bir-ikki kun nafas **rostlab** olay, zoʻrgʻa topgan doʻstimni bezdirib qoʻymaslik uchun aytajak gaplarimni bir taroziga solib, tortib olay [6,9]. Bu gaplarda qatnashgan **xavfli, rostlab** soʻzlarini talaffuz qilganimizda nutqda **v** va **t** tovushlari tushib qolib, diereza hodisasi yuzuga keladi.

3. Shoira qizlarning **gazet**larda chiqadigan bir xil suratlariga taqlidan koʻrsatkich barmogʻimni iyagimga qoʻyib jilmaydim [6,14]. Ushbu gapda qatnashgan **gazet** soʻzi **gazeta** soʻzining dierezaga uchragan shakli hisoblanadi.

5. **Metateza** yonma-yon turgan tovushlarning oʻrin almashishi hodisasi [2,38].

1. Onam “Voy oʻlay!” degancha elakni **supraga** changitgancha tashlab, kovushini ham oyogʻiga ilmay, darvozaxonaga yugurdi [6,47].

2. Bir kuni onam **surpa** yoyib, laplaplatib elak urar, toʻrning mayda koʻzlaridan toʻkilayotgan un barxan boʻlib uyilardi [6,47]. Birinchi gapda qoʻllanilgan **supra** soʻzi imloviy jihatdan toʻgʻri yozilgan, ikkinchi gapda esa **surpa** soʻzi **surpa** soʻzining metateza hodisasiga uchragan variantidir. Lekin ikkala gapda ham bu soʻzlar bir xil maʼnoni ifodalash uchun, yaʼni xamir yoyish, non yasash uchun moʻljallangan roʻzgʻor buyumi maʼnosida qoʻllanilgan.

6. **Gaplologiya** ikki yonma-yon turgan tovush yoki o'xshash bo'g'inlardan birining tushib qolish hodisasidir [2,38].

1. Sakkiz-to'qqiz yoshimda dadam poytaxtda bo'ladigan kursdoshlari uchrashuviga meniyam **olib borgandi** [6,127].

2. Buncha mablag' bilan bemalol Yevropaga, Germaniyaga **oborib** davolatsa bo'lardi [6,263]. Bu ikkala gapdagi **olib bormoq** va **obormoq** so'zlarini solishtiradigan bo'lsak, ikkinchi gapdagi **obormoq** so'zi **olib bormoq** fe'lining gaplologiya hodisasiga uchragan shakli hisoblanadi, ammo ikkala so'z ham bir ma'noni ifodalash uchun qo'llanilmoqda.

7. **Epenteza** so'zlarga ularning tarkibida yo'q bo'lgan tovushlarning qo'shib aytilishi hodisasidir [2,38].

1. Bu xalq **tabiatan** yaltir-yulturga o'ch bo'lishini bilardim, lekin ko'zguga ishqibozligini endi ko'rdim [6,228].

2. Voajab, shu **fikr** miyamda qayta uyg'ongan payt chol ko'zlarimga muloyim qarab yana gap boshladi [6,76].

3. Ha, bolam-a, bosh bilan vujud, **aql** bilan yurak **doim** muvofiq kelavermaydi [6,86]. Ushbu gaplarda qo'llanilgan **tabiatan**, **doim** so'zlarida talaffuzda bir **y** tovushi, **fikr**, **aql** so'zlarida bir **i** tovushi qo'shib talaffuz qilinadi va bu epenteza hodisasini yuzaga keltiradi.

8. **Proteza** – so'z boshida bir unlining orttirilishi [5,75].

1. Men o'rimdan turib, **stol**ning narigi tomoniga o'tib oldim [6,207].

2. Bu so'zlashuvlar **SMS**larga, SMSlar uzoq suhbatlarga ulanib, bir-birimizga beixtiyor bog'lanib qoldik [6,17]. **Stol** va **SMS** so'zlarini talaffuz qilganimizda nutqda bir **i** unli tovushi orttiriladi, ya'ni **istol**, **iSMS** tarzida talaffuz qilinadi. *Bu fonetik hodisa, asosan, chet tillaridan o'zbek tiliga o'zlashtirilgan so'zlarda ro'y beradi.*

9. **Apakopa** – o'zak oxiridagi tovush tushishi [5,75].

1. Shunday qilib, **jamoaning** ko'pchiligi menga ro'yxush bermay qo'ydi [6,114].

2. – Bonujon, uxladimgi? – dedi **past** tovushda [6,105].

3. – Hech kim undan **baland** baholamadi, insoflisi shu ekan, – dedi opaginam o'zini oqlab [6,258]. Nutq jarayonida **jamo**, **past**, **baland** so'zlari apakopa hodisasiga uchrab, **jamo**, **pas**, **balan** tarzida talaffuz qilinadi, ya'ni so'z oxiridagi tovush talaffuzda tushib qoladi.

10. **Sinkopa** – unlilarning qisqa talaffuz etilishi [5,75].

1. Menimcha, aynan **direktor**ning iltimosiga ko'ra tumandan tekshiruv keldi [6,114].

2. Quyuq ovqat tortilgandan keyin hammalari hovliga chiqib, **gubernator**ni kuzatib qaytishdi [6,233].

3. Bir vaqtlar o'ris matbuoti mashhur **kombinator** Ostap Bender timsoli yaratilishida Turg'un Hasanov degan bizning yurtdoshimiz faoliyati asos bo'lgani haqida yozgandi [6,279]. Ushbu gaplarda qo'llanilgan **direktor**, **gubernator** va **kombinator** so'zlarining oxirgi bo'g'inidagi **o** unlisi qisqa talaffuz qilinishi natijasida sinkopa hodisasi yuzaga kelyapti.

11. **Prokopa** – so'z boshida undoshning tushishi [5,75]. Masalan, **yag'och** – **ag'och**, **yilon** – **ilon** kabilar bunga misol bo'ladi.

12. **Eliziya** – unli bilan tugagan va unli bilan boshlangan ikki so'zning qo'shilishi natijasida tovushlardan birining tushishi [5,75].

1. Biz o‘z holimizcha vositasiz falakka ko‘tarila olmaganimizdek, o‘lmay turib zamin bag‘riga butkul **kirolmaymiz** [6,10].

2. U aytdiki, asli jurnalist bo‘lmoqchi ekan-u, ammo padarining qaroriga qarshi **borolmay**, buyuk hamqishlog‘i Sinoga izdosh tushibdi [1,17].

3. Qo‘rqamanki, birovning iztiroblari tez badingizga urib, ko‘ngil darchangizni taraqlatib yopib **olmasmikansiz**, tanasi boshqa dardingni bilmaganidek, anduhlarimni tushunmasdan zada bo‘lib meni “qora ro‘yxat”ga qo‘shib **qo‘ymasmikansiz** [6,9]. Ushbu gaplardagi **kirolmaymiz**, **borolmay**, **olmasmikansiz**, **qo‘ymasmikansiz** so‘zlari tarkibidagi bir unli tovushning tushib qolishi natijasida eliziya hodisasi ro‘y beryapti.

13. **Sinerezis** – so‘z tarkibida yondosh qo‘llangan ikki unlining diftonglashuvi [4,84].

1. **Jamoat** ulovida yurishning ham o‘ziga yarasha gashti bo‘ladi, a? [6,32].

2. Meni oyatlar allalab uxlatib-uyg‘otgan, bobomning vazmin **qiroati** qon-qonimga singib ketgan edi [6,12].

3. U bo‘yniga osig‘li **fotoapparatini** sozlab, meni mo‘ljalga olyapti [6,14]. Ushbu gaplardagi **jamoat**, **qiroat**, **fotoapparat** so‘zlarida yonma-yon kelgan unilardan biri talaffuzda tushib qoladi, ya‘ni **jamot**, **qirot**, **fotaparat** tarzida aytiladi.

Pozitsion o‘zgarishlar – tovushlarning so‘zdagi joylashuviga qarab talaffuzda tushib qolishi, o‘zgarishi. Bunday o‘zgarishlar 3 turli bo‘ladi:

a) **Reduksiya** – unli fonemaning urg‘usiz bo‘g‘inda kuchsizlanishi [4,81].

1. Kuni kecha mehmon **bilan** to‘lib-toshgan, dasturxonni yig‘ilmaydigan xonadonga **birov** qadam bosmay qo‘ydi [6,103].

2. Bugun feysbukdagi tabriklar, **tilak**larni o‘qib, chappar gullagan bodom-u giloslarni ko‘rib, dimog‘imga bol hidi urilganday bo‘ldi [6,152]. Yuqorida keltirilgan gaplarda **bilan**, **birov**, **tilak** so‘zlarida urg‘u ikkinchi bo‘g‘inga tushganligi bois, birinchi bo‘g‘indagi **i** unlisi talaffuzda bilinar-bilinmas talaffuz qilinadi.

b) So‘z oxiridagi ochiq bo‘g‘inda tor unilarning biroz kengayishi [4,81]. 1. Gulshan opam onamga qo‘ng‘iroq qilib **qoldi** [6,153].

2. Bugun egizaklarning tug‘ilgan **kuni** [6,244]. Ushbu gaplardagi **qoldi**, **kuni** so‘zlaridagi **i** tor unlisi kengroq talaffuz qilinadi.

d) Jarangli undoshlarning so‘z oxirida jarangsizlanishi [4,81]. Masalan,

1. Bir kuni **kitob** o‘qib ko‘zim **charchab**, mehmonxonaga chiqsam, Dilbar xirgoyi **qilib** dasturxon tuzayapti [6,188]. Ushbu gapda ajratib ko‘rsatilgan **kitob**, **charchab**, **qilib** so‘zlarida **b** jarangli undoshi talaffuzda jarangsiz jufti **p** ga monand talaffuz etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, har bir tilda mavjud bo‘lganidek, o‘zbek tilida ham fonetik hodisalar mavjud. O‘zbek tilidagi fonetik o‘zgarishlar 2 guruhga, ya‘ni kombinator va pozitsion o‘zgarishlarga bo‘linib, ular ham o‘z navbatida bir nechta ichki guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi. Fonetik hodisalar, asosan, nutqda talaffuz qulayligiga erishish uchun hosil qilinadi.

REFERENCES

1. Abduazizov.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010. – 176 b.
2. Irisqulov.M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: “Yoshlar matbuoti”, 2009. – 263 b.
3. Nurmonov.A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. – Toshkent: “Ta’lim” nashriyoti, 2009. – 160 b.
4. Xayrullayev.X. Eshboyeva.O. va Rahmatova.D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘MM. – Samarqand, 2022. – 258 b.
5. Xolmanova.Z. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2007. – 177 b.
6. Iqbol Mirzo. Bonu. – Toshkent: “Factor books”, 2022. – 288 b